

**University of economics and pedagogy NOTM pedagogika kafedrasi dotsenti v.b. (PhD) p.f.f.d.:  
M.Ro'ziboyeva taqrizi ostida**

**Usmonaliyev Ikromjon Murodjon o'g'li**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Qo'qon DPI

Tel: +998906911993

Email: [ikromjon2705@gmail.com](mailto:ikromjon2705@gmail.com)

## **BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KREATIV TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH VA PEDAGOGIKADA ILMIY IJODKORLIK**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tasavvurini rivojlanishi va pedagogikada ilmiy ijodkorlik hususida fkr-mulohazalar bayon etilgan. Ma'lumki, ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilanadi. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq.

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, kreativ tasavvur, pedagogik ijodkorlik, ta'limiy yondashuv, tadqiqot metodlari, rivojlanish.

**Абстрактный:** В данной статье представлены мысли о развитии творческого воображения будущих учителей и научного творчества в педагогике. Известно, что формирование творческой личности определяется как развитие личности в плане творческой деятельности, осуществляющейся взаимосовместимым образом, и создания творческих продуктов. Темпы и масштабы этого процесса зависят от биологических и социальных факторов, активности и творческих качеств человека, а также существующих условий, важных жизненных и профессиональных событий.

**Ключевые слова.** Креативность, творческое воображение, педагогическое творчество, педагогический подход, методы исследования, развитие.

**Abstract:** This article presents thoughts on the development of creative imagination of future teachers and scientific creativity in pedagogy. It is known that the formation of a creative person is defined as the development of a person in terms of creative activities performed in a mutually compatible way and the creation of creative products. The pace and scope of this process depends on biological and social factors, the activity and creative qualities of a person, as well as existing conditions, important vital and professional events.

**Keywords:** Creativity, creative imagination, pedagogical creativity, educational approach, research methods, development.

**Kirish.** Jahondagi globallashuv va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorlarligini kreativlik asosida rivojlanirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlanirish oliy ta'lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning

yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarning zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Prezidentimizning “2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmonida “Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi” [1] deb alohida ta'kidlangan.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Ko'plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o'rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi birbiriga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. “Kreativlik” tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar.


Butun dunyoda yuz berayotgan to'rtinchchi sanoat tamaddunining dvigateli – harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir.

Kreativlik orqali nimalar vujudga keladi: elektron xizmatlar, 3D printer, virtual reallik, to'rburchak tarvuzlar barchamizga oddiy ko'ringan, tuproqsiz hosil olish kabi bir qancha ixtiolar ya'ni bularning barchasi inson tafakkurining, inson tasavvurining, inson kreativligining mahsuli hisoblanadi. Inson miyasi odatda o'z ishini yengillashtirish, qulaylashtirish uchun ma'lum bir shablon va stereotiplardan foydalanadi. Natijada qobiqqa o'ralib, qolipga tushib qoladi. Buning uchun nima qilish kerak eng avvalo stereotiplarni buzamiz, qoliplardan voz kechamiz.

Bir o'ylab ko'ring biz bilgan barcha buyuk bir insonlar ichida shunday insonlar borki bular: Tomas Edison, Albert Enshteyn yoki Dmitriy Mendeleyev bu ro'yxatni juda ham ko'plab davom ettirish mumkin. Ularning maktabda oladigan baholariga havas qilsa, arzigulik bo'lmagan, lekin ularda bir qobiliyat bo'lgan ya'ni ular kreativ, ijodkor insonlar bo'lgan shuning uchun ham Tomas Edison, Albert Enshteyn, Dmitriy Mendeleyev o'z kasbining qirollariga, ba'zilari esa Nobel mukofoti sovrindorlariga aylangan.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq.

Amerikalik olim D.Veksler “Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi”[2.B.59] – deb ta'rif beradi.



D.Veksler

O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalahshtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'yab topishga majbur qilish ta'lif olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'ladi. Kreativ shaxs bo'lish, bizning misolimizda esa, kreativ talaba bo'lish – bugungi dunyoda afzalliklarga ega bo'lish, masalan, boshqa talabalar ichida ajralib turish, boshqalarga qaraganda qiziq suhbatdosh bo'lish, hayotda uchraydigan qiyinchiliklardan noodatiga tarzda chiqib ketish demakdir.

A.X.Maslou kreativlikda o'z-o'zini shakllantirishning ikki darajasini keltirib o'tgan: birinchisi – "ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo'ladi", "ikkinchisi – ixtiyoriy, og'ir mehnat bilan bog'liq, uzluksiz ta'lif, kamolotga intiluvchanlik".[3.B.108]

A.X.Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko'radi, ya'ni barcha insonlardagi tug'ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma'lum ijtimoiy to'siqlar natijasida yo'qolib ketadi, deb hisoblaydi.

T.A.Barisheva va Yu.A.Jigalovalar pedagogikada kreativlikni tizimli (ko'p bosqichli, ko'p o'lchamli) psixik (ruhiy) ta'lif sifatida talqin etib, unga faqatgina



A.X.Maslou

intellektual potensialni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetik rivojlanish darajasining mavjudligi, kommunikativ parametrlari, kompetentligi va hokazolarni ham kiritadi.

**Kreativ tasavvur nima?** Ta'lif oluvchilarining tasavvurlarini ta'sirchan tarzda ifodalash, bilim olishga undovchi, original va samarali yechim topishga yo'naltiruvchi g'oyalarni shakllantirish, baholash va takomillashtirish kompetensiyasi. Qolaversa, o'quvchilarining g'oyalarni yaratishi, yangi g'oyalarga nisbatan munosabatlarini bildirishi va kutilgan natijaga kelmagunicha g'oyalarni yaratishda davom etishi ham kreativ fikrlashdan darak beradi.

Kreativ tasavvur muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Demak, shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "talabalar e'tiborini ta'lif jarayoniga faol jalb etish"ni ta'minlaydi. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shaxsning ijodiy salohiyati muammoga mustaqil qarash, qarama-qarshiliklar, tanqidiy fikrlash, har qanday muammolarni tahlil qilish qobiliyati, analitik fikrlash, ular uchun yechim topish qobiliyati, bilim olish, malaka va ta'lif berish usullarini yangi holatga o'tkazish imkoniyati, ilgari o'rganilgan usullarni yangilarga birlashtira olish kabi ko'nikmalarda namoyon bo'lishi mumkin.

Talabaning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirish jarayoni unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzida namoyon bo'ladi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenezi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq.

Kreativ tasavvur turli vaziyatlarda ta'lif va tarbiyaga oid masalalar yuzasidan qarorlarni qabul qilishda yaqqol namoyon bo'lib, u pedagogining ijodiy faolligini tavsiflaydi. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini

rivojlantirish ular tomonidan pedagogik, psixologik hamda o‘qitiladigan fanlar asoslaridan to‘la xabardor bo‘lish, ular tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda faol qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hisobiga kechadi.

Kreativ ifoda – kreativ fikrlash orqali o‘zining ichki dunyosini boshqalarga yetgazib berishga tegishli hisoblanadi. Kreativ ifoda ikki xil ko‘rinishda ifodalanadi.

1) Yozma ifodalash sohasi – ijodiy barkamollikni ifoda qilishning tabiiy vositasi hisoblanib, o‘quvchilardagi aqliy hamda muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun muhimdir.

2) Vizual ifodalash sohasi – kreativ fikrlash ko‘nikmalarini ifoda qilishda o‘quvchilar axborot uzatish vositalari, materiallar va jarayonlardan foydalanib, fikrmulohazalari va tajribalarni kashf etadi, tajribada sinaydi va boshqalar bilan baham ko‘radi.

Muammoni kreativ hal qilish – bu yanada funksional yondashuvni talab qiladi. Muammo – fikrlash – yechim. O‘quvchilar erkin fikrlay olishi kerak, ko‘p savollar bersa, savollariga to‘liq, aniq, ravon javob bergen holda, ularni rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab – quvvatlash lozim. Qachon bola savol beradi? Qachonki bola fikrlashni boshlasa savol beradi. Bolalar tomonidan mustaqil faoliyatini tashkil etish uchun imyoniyat yaratib berish kerak. O‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik bo‘lsa o‘quvchilarda shuncha tez erkin fikrlash yuzaga keladi.

Aytib o‘tilganidek, barcha shaxslarda bo‘lgani kabi pedagoglarda ham kreativlik sifatlari o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. Shunga ko‘ra tadqiqotlarda shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo‘llari yoritiladi. Patti Drepeau tomonidan ham shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to‘rtta yo‘li ko‘rsatilgan:[4.B.25]


1-yo‘l: kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish.

2-yo‘l: amaliy kreativ harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish.

3-yo‘l: kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish.

4-yo‘l: kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish.

Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to‘sinqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o‘qituvchilar ushbu omillarni barataf etishga e’tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sinqinlik qiladi:



O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lif jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tanlangan sotsiologik tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, o'qituvchilarning atigi 10-12 foizi noan'anaviy, ijodiy ishlaydi va bundan quvonch va qoniqish oladi 9/10 - talabalar kabi, ular o'z ishlariga xizmat qilishadi va quvonchdan ko'ra ko'proq og'riqli histuyg'ularni olishadi. Buni bilish juda muhim, chunki o'qituvchining o'zini o'zi bilishi uning kasbining chuqurligini tushunishdan boshlanadi. O'qituvchi ishini qat'iy tartibga solish stereotipi ko'plab ta'lif xodimlarini asir qiladi: tarbiyachilar va enagalar, o'qituvchilar va kasb-hunar ta'limi mutaxassislari, mакtablar, texnik maktablar va universitetlar o'qituvchilari.

Binobarin, tarbiya va ta'limgagi ijodkorlikning eng yuqori darjasini pedagogik eksperimentdir. Tajriba davomida yangi pedagogik texnologiya sinovdan o'tkaziladi va mavjud bo'lish huquqi beriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2018-yil 21-sentabr, PF-5544-son Farmoni
2. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lif texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 59 b
3. Маслоу А.Г. Мотивация личности. – СПб, 1999, -78с.,Маслоу А.Г. Самоактуализация // Психология личности: Тексты. –М.:, 1982. –с. 108-118
4. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014